



BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF INGLIZ TILI O'QITUVCHISINING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA PEDAGOGIK-METODIK KOMPITENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Yuldasheva U.M.

*Andijon davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: kompetentlik, kasbiy kompetentlik, texnologiya, bilim, ko'nikma, malaka, nutq, kreativlik, boshlang'ich ingliz tili, faoliyat, innovatsiya, metodika.

Ключевые слова: компетентность, профессиональная компетентность, технология, знания, умения, компетентность, речь, креативность, элементарный английский язык, деятельность, новаторство, методология.

Key words: competence, professional competence, technology, knowledge, skills, competence, speech, creativity, elementary English, activity, innovation, methodology.

Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ko'nikmasi hayotimizning ajralmas qismlaridan biri bo'lib bormoqda. Turli sohalardagi mutaxassislarda chet ellik hamkorlar bilan hamkorlik qilish ko'rsatkichi yuqori bo'lganligi sababli, ularda til o'rganishga bo'lgan talab yuqoridir. Zamonaviy jamiyatda chet tillari kasbiy ta'limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bunday bilimlarni insonlar dastlab maktabgacha ta'lim muassasalari va maktab keyinchalik institutlarda, o'quv kurslarida yoki mustaqil ravishda xorijiy tilni o'rganadilar. Ushbu maqsadga yetishishda muvaffaqiyatga erishish, o'qituvchilarning amaliy uslublari va malakasiga bog'liq. Axborot texnologiyalari va zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanish qobiliyati yangi materiallarni tezkor tushunishga yordam beradi. Turli usullarni birlashtirib o'qituvchi muayyan ta'lim dasturlarini yechishga qodir bo'ladi. Ingliz tilini o'rgatishda o'rganuvchining salohiyat va darajasi, yoshidan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich o'rgatish yaxshi natija beradi. Bunda avvalo o'qituvchining kasbiy pedagogic-metodik kompetensiyasi muhim o'rin tutadi.



Pedagogik jarayonning qanchalik samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishi o'qituvchining pedagogik qobiliyatga egaligiga bog'liq. Manbalardan birida "pedagogic konpitensiya" tushunchasi shunday sharhlanadi: shaxsning osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyatdir. Boshlang'ich sinf ingliz tili o'qituvchisida quyidagi noyob qobiliyatlar ham bo'lishi zarur;

- bir vaqtning o'zida bir necha faoliyatni bajara olish (eshitish, ko'rish, o'qish, yozish, fikr yuritish, muloqot qilish va b.);
- atrofida kechayotgan ikki yoki bir necha voqelikni birdek qabul qilish (bir o'quvchining javobini eshitgani holda, boshqa o'quvchining faoliyatlarini kuzata olish);
- o'ta qiziquvchanlik (tabiat va jamiyatda kechayotgan har bir voqea-hodisa (garchi ular eng ahamiyatsiz, e'tiborga tashlanmaydigan bo'lsada) mohiyatini bilishga intilish, haddan ziyod ko'p savollarga javob topishga intilish);
- miya faoliyatining biokimyoviy va elektrik faolligi (miya deyarli to'xtovsiz faoliyat ko'rsatib, nihoyatda kam vaqt "dam oladi", bilish jarayonida noaniqliklar ko'zga tashlansa, ular tezda bartaraf etiladi);
- nutqi va fantaziyasining boyligi (qobiliyatli o'qituvchilarning aksariyati nihoyatda boy nutqqa ega, ularda fantaziya (tasavvur qilish) qobiliyati beqiyos darajada kuchli);
- kuchli xotira (yirik hajmdagi matni, m:dostonlarni bir marta o'qish bilan to'laligiga yodlab olib, uni so'zma-so'z qayta hikoya qilib berish qobiliyati) ga egalik. Zamonaviy sharoitda o'qituvchining kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishi, o'z ustida izchil ishlashi, kun sayin yangilanib borayotgan bilimlarni o'zlashtirishga intilishi, o'quv axborotlarini talabalarga qiziqarli tarzda yetkazib berish uchun mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishga ijodiy yondasha olishi talab etilmoqda.

Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtining ko'pligi buning asosiy sabablaridandir. Shuni e'tiborga olish kerakki, 6–7 yoshli bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik zarur. Aks holda chet tilini o'rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani zo'riqtirib qo'yish va qiziqishini so'ndirib qo'yish mumkin. Shunday ekan, kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o'rgatish ancha mushkul va mas'uliyatli.



Boshlang'ich sinf o'quvchilarida chet tili ko'nikmalarini oshirish boshlang'ich ta'lim sohasida katta ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir bilim va ko'nikmaning boshlanishi boshlang'ich ta'limdan boshlanadi va hozirgi kunda esa xorijiy tillarni bilish zamon talabi hisoblanadi. Xorijiy tillarni o'qitishda o'qituvchi pedagog mahorati muhim ahamiyatga ega. Ya'ni pedagog xodim yosh avlodga xorijiy tillarni bilish qanchalik muhim ahamiyatga molik ekanligi haqida yetarlicha singdira olishi va o'quvchilarda xorijiy tillarga nisbatan qiziqish uyg'ota olishi darkor.

Hozirgi kunda respublikamizning barcha hududlarida maktab ta'limida xorijiy tillarni o'qitishda muhim islohotlar amalga oshirilgan. Jumladan boshlang'ich sinflarda birinchi sinfdan boshlab ingliz, nemis yoki fransuz tillarini o'qitish boshlangan. Biz oldingi davr sarhisobini ko'rar ekanmiz, xorijiy tillarni o'qitish maktab ta'limida 5-sinfdan boshlanganligini bilishimiz mumkin. Keyingi islohotlar natijasi o'laroq esa xorijiy tillarni o'qitish 1-sinfdan boshlandi va boshlang'ich sinf o'quvchilari yetarli kitob va darsliklar bilan ta'minlandi. Yurtimizda boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'qitishda yetarlicha shart-sharoitlar yaratilgan va chet tili ko'nikmalarini oshirish pedagog xodimlarning vazifasi hisoblanadi. Chet tili o'qituvchilari turli xil metodlar va qiziqarli o'yinlar yordamida o'quvchilarda xorijiy tillarga nisbatan qiziqish uyg'ota olishi va ushbu chet tilining qiziqarli tomonlarini ko'rsata olishi hamda dars mashg'ulotlarini qiziqarli tashkillashtira olishi darkor.

Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish metodikasida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning til o'rganish individual layoqatlari (individual language learning aptitude)⁶³ va individual usullari (4MAT Learning styles)⁶⁴ ham hisobga olinadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ingliz tili o'rganish layoqatlarining "yuqori", "o'rta" va "past" nisbiy darajalari aniqlangan. Ingliz tili o'rganish layoqat darajalari o'quvchilarning a) o'quv faoliyat turining ratsional usullarini egallaganliklari; b) verbal xotira (so'z mantiq xotirasi va ma'nosini tushunib eslab qolish salmog'i)ning rivojlanganligi; d) til qonuniyatlarini kashf qilib o'rganilishini tezlashtiruvchi tafakkurning rivojlanganligi; e) diqqatni ongli idora qila olish kabi individual xususiyatlaridan kelib chiqib aniqlanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ingliz tili o'rganish usullari (learning styles)ga quyidagicha ta'rif berilgan: - Learning styles refers to " ...an individual's natural habitual, and preferred ways of absorbing, processing, and retaining new information and skills."⁶⁵ . - O'rganish usullari "individning yangi axborot va malakalarni xazm qilish, qayta ishlash va xotirada saqlashning tabiiy odatlashgan va afzal ko'radigan yo'llari" degan ma'noni ifodalaydi.



Yuqoridagi atamalarga berilgan izohlarni umumiy lashtirib ingliz tili o'rganish usullarini quyidagicha sharhlash mumkin: Innovatsion o'rganuvchilar – (innovative learners) til materialini nima sababdan va qanday maqsadda o'rganish lozimligini aniq tushunib olishlari lozim. Ular kontekstdagi axborotni yaxshi o'zlashtiradilar, kundalik hayot va tajribalari uchun foydali deb hisoblamagan yangi ma'lumotni qabul qilmaydilar. Ularning yoqtirgan savoli: «Nima uchun?» Tahlilchi o'rganuvchilar - (analytic learners) – idrok etishda tartibli, maqsadga muvofiq, serqirra tahlil qilishadi. Lekin ba'zan muhim alomatlar chetda qolib tasodifiy belgilarga e'tibor qaratadilar. Ular o'qituvchini aqlu idrok sohibi, tiyrak, sezgir, mehribon hatto donishmand inson deb biladilar. O'qituvchi siymosida o'zining ezgu niyati, orzu-istagi, ajoyib his-tuyg'ularini ro'yobga chiqaruvchi mo'tabar shaxsni ko'radi. O'qituvchining obro'si oldida ota-onalar, oilaning boshqa a'zolari, qarindosh-urug'lar, tanish-bilishlarning obro'si keskin pasayadi. Shu sababli bunday bolalar o'qituvchining har bir so'zini qonun deb bilishadi. Ular axborot taqdim etadigan dalillarni solishtirishga qiziqishadi va til materialini yolg'iz mashq qilishni ma'qul ko'rishadi. Ular til materialini qismlarga ajratib o'rganishadi. Taxlilchilar yolg'iz ishlashni ma'qul ko'rishadi lekin jamoa bilan yaxshi o'zlashtirishadi. Ularning yoqtirgan savoli: «Nima?» Kinesetik o'rganuvchilar – (kinesthetic (tactile, auditory, visual) learners) – hodisalarning sodir bo'lishi jarayonlarida ishtirok etishni yoqtirishadi. Ya'ni, manipulyasiya qilinadigan (manipulative), qo'llar ishtirokida bajariladigan (handson activity) tajribalarda bevosita ishtirok etishni istashadi. Ular kashf qilish, taxmin qilish, tajribada sinab ko'rish, muammo yechimini topish kabi mashg'ulotlarda faollik ko'rsatishadi. Ular iste'dodli o'quvchi sifatida tan olinish uchun bor imkoniyatlarini ishga solishadi va boshqalarga ham o'z iqtidorini namoyish etishlariga ko'maklashishdan zavqlanishadi. Ular tashqi muhitga (issiq, sovuq, yorug'likka) va til o'rganish muhitiga ta'sirchan bo'lishadi. Ularning yoqtirgan savoli: «Bu qanday ishlaydi?»

Ma'lumki, kichik maktab yoshidagi o'quvchi o'z ona tildan biror narsani qo'lga kiritish (instrumental funktsiya), xatti-harakatni boshqarish (regulyativ funktsiya), atrofda gilar bilan hamkorlikda faoliyat yuritish (interaktiv funktsiya), shaxsiy his-tuyg'ular va ma'nolarni ifodalash (personal funktsiya), o'rganish va kashf qilish (evristik funktsiya), o'z tasavvuridagi olamni yaratish (tasavvur funktsiya), axborot almashish (kommunikativ funktsiya) maqsadlarida foydalanadi. Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitishga o'quvchilarga ingliz tilidan aynan shu maqsadlarda foydalanishni o'rgatish lozimligi tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinflarda interfaol va zamonaviy metodlardan foydalanish o'quv jarayonini samarali tashkil etishning asosidir.



Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish esa o'quvchilarni mustaqil fikrlashga ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlashni kengaytirish bilan birga ularni mdarslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lash hamda darsga qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. Zamonaviy ta'lim dasturlaridan xabardor bo'lish imkonini beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim- tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

Adabiyotlar:

1. Стронин М.Ф. Обучающие игры на уроке английского языка. –Москва: –1981.стр-46-47
2. Tojiboev. G.Sh. “Boshlangich sinf o'quvchilariga chet til o'qishda kommunikativ yoritish”. / monografiya / -Namangan: -2020, 204 b
3. Пассов Е.И. Основы коммуникативной методики обучения иностранным языкам. - Москва: –1999, стр-45-52
4. Rsaliev A.T. Formation of Communicative competence of Primary class students based on didactic game technology. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, ISSN 2795-739X, March, 2023, pages 96-99

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada hozirgi davr ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirishda boshlang'ich sinf ingliz tili o'qituvchisining kasbiy mahoratining o'rmi, pedagogic-metodik kompetensiyasi hamda faoliyatni amaliyotda qo'llash xususiyati to'g'risida to'xtalib o'tilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье основное внимание уделяется роли профессиональных навыков, педагогико-методической компетентности и практическому применению деятельности учителя начального английского языка в повышении качества и эффективности текущего образовательного процесса.

SUMMARY

This article focuses on the role of professional skills, pedagogical and methodological competence and the practical application of the activities of a primary English teacher in improving the quality and efficiency of the current educational process.